

TONG yulduzi

O'zbekiston Respublikasi bolalari va o'smirlari gazetasi

Gazeta 1929-yil 1-avgustdan chiqa boshlagan

2006-yil 22 - 28 - may N:21 (66562)

Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,
O'zbekiston Respublikasi Xalq Ta'limi Vazirligi,
«KAMOLOT» Yoshlar Ijtimoiy Harakati,
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» Hukumatga qarashli bo'lmagan xalqaro xayriya jamg'armasi.



XAYR ENDI, SINFDOSHLARIM!

Yuraklarni ezib bir titroq,
Jarangladi so'nggi qo'ng'iroq.
Ketayapmiz yig'lab biz yiroq,
Xayr endi, sinfdoshlarim!

Kimyoxona ketmaydi tutab,
Yugurmaymiz sinfda tap-tap.
Biz yo'q, tinchib qoladi maktab,
Xayr endi sinfdoshlarim!

O'n bir yil biz o'qidik birga,
Ikki olsak, botardik terga.
Qochamiz, deb tushardik to'rga,
Xayr endi, sinfdoshlarim!

O'n yettiga to'lib yoshimiz,
Ko'zdan to'kib achchiq yoshimiz.
Ketdik egib asta boshimiz,
Xayr endi, sinfdoshlarim!

Abdulaziz MAMADALIYEV,
Andijon viloyati, Baliqchi tumani,
Cho'ngqayma qishlog'i.

TALABALAR TIL O'RGANSIN

O'quv yili tugashi bilan bitiruvchilar o'z kelajagini o'ylab qolishadi. Respublika miqyosidagi o'quv dargohlari bilan yaqindan tanishishga, moddiy tomondan baquvvat bo'lganlar esa xorijiy oliygohlarni internet orqali izlashga tushadi. Xorijda ham chet mamlakat oliygohlariga intilish yuqori ekan. Ayniqsa, O'zbekiston oliygohlariga xorijlik yoshlarning qiziqishi ortayotganini kuni kecha yurtimizga tashrif buyurgan Arab universitetlari uyushmasining mas'ul kotibi doktor Husan Xolid ham ta'kidlab o'tdi.

mazmuni ham haqidadir:

Kim bo'lsam ekan?

«Yaqinda Avstriyada Saudiya Arabistoni teltari kuni bo'lib o'tdi. Bu ikki ta'lim sohasidagi rivojlanishiga keng Saudiya Arabistoni ta'lim vaziri doktor al-Ankari islom dini-olliy ta'limi bilan raqo-olliyoghlarning ilmiy ekanligini ta'kidlab larning 57 foizini shini, shuningdek, o'qiko'pchilikdan iborat-davlat byudjetining to'rt-yili ta'limga ajratilishini O'tgan yilda 6 mingdan jo'natildi. Yaqin 25 yil ichida oliy ta'lim asosini mukammallashtirish haqida tezkor rejalar ishlab chiqilajagini, Yaponiya, Xitoy, Avstraliya, Hindiston, Yevropa va Amerika kabi davlatlarga talabalar ko'proq jo'natilishini, ayniqsa, tibbiyot sohasidagi aspirantlarni qo'llab-quvvatlash kerakligini ta'kidlab o'tdi. Yana qo'shimcha qilib, Saudiyadagi universitetlar eshigi xorij talabalari uchun doimo ochiqligini qo'shib o'tdi.»

Podshohligi universi-mamlakat o'rtasidagi hamkorlikni yanada yo'l ochib berdi. Podshohligining oliy Xolid bin Muhammad ga yo'g'rilgan, jahon batlasha oladigan izlanishlari yuqori o'tdi. Vazir talaba-ayollar tashkil etituvchi ayollar ham ligini aytar ekan, dan bir qismi har ham qo'shib o'tdi.



z ziyod talaba AQSHda ta'lim olish uchun

Shunday ekan, aziz o'quvchilar, til o'rganing, internet orqali sinov va imtihonlar topshirib, bilimingizni xorijiy davlatlarda yanada boyiting.

Muharrama PIRMATOVA tarjimasi.

Tahririyatimizga o'z taklif va mulohazalarini bildirish uchun kelgan bir mushtariy gazetalarni varaqlar ekan: «Nima uchun men bu gazetani Talimarjonda hech ko'rmayman? Sotuvda umuman yo'q. Maktablarda bolalar boshqa nashrlarga obuna bo'lish bilan band. Turli viloyat va tumanlar o'quvchilarining ijod namunalari orasida nega Talimarjon degan manzilni hech uchratmadim? Demak, gazeta targ'iboti yaxshi emas», - dedi o'zini Murod Hazratqulov, deya tanishtirib.

- Menga berilgan O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi unvoni o'zgaralar uchun ham ziyo ulashishga da'vat etadi. Shuning uchun ham Qashqadaryo viloyati, Talimarjon shahridagi Alisher Navoiy nomli Madaniyat markazi direktori sifatida talimarjonlik 5000 nafar o'quvchini «Tong yulduzi» gazetangizga obuna qilaman. Evaziga sizlar ham bizning mushtariylar **Obuna uzluksiz jarayon** ijod namunalariidan e'lon qilasisz, deb umid qilaman.

- Albatta-da. Qani edi respublikamizning barcha shaharlaridan



5000-10.000 talab obunani o'z bo'yniga oluvchi mutasaddilarimiz bo'lsa... Axir ma'nan boy avlod qanchalik ko'p bo'lsa, uning kelajagi ham shunchalik porloq bo'ladi-ku. Mana, siz madaniyat sohasida ishlar ekansiz. Keling, o'quvchilarimizga kiyinish madaniyatidan ma'lumot bersangiz.

TALIMARJONLIK BOLALARGA 5000 TA «TONG YULDUZI»

- Kiyinish madaniyatini go'daklikdan o'rgatib borish zarur. Kiyimlar yozgi, qishki, bahorgi, kuzgi bo'libgina qolmay, uning ham o'z o'rnini va mavridi bo'ladi. Mana, kunlar isib, qizlar, ayollar darrov yengi yo'q, kechirasiz-u, hatto ingichka ipli kofta-yu kalta yubka yoki tor shim kiyib olishdi. Bunday sport kiyimlarini sport zallarida, cho'milish havzalarida kiysalar, ko'proq maqsadga muvofiq bo'lardi. Ish kiyimi, ya'ni, «Ofis kiyimi» siporoq, talabalar kiyimi odmiroq bo'lishi kerak, deb o'ylayman. Axir oliygohga o'zini ko'z-ko'zlashga emas, balki bilim olgani borishadi-ku. Bundan tashqari, kiyinish jarayonida rang tanlash bu yana bir san'at. Uning mohiyatida ham yuksak madaniyat yotadi.

- Ovqatlanish madaniyatiga to'xtalsangiz...

- Xalqimizda «Og'ziga kelganni demoq nodonning ishi, og'ziga kelganni yemoq hayvonning ishi», degan ajoyib naql bor. Bundan shu narsa ko'rinib turibdiki, inson uchun eng zarur narsa yegulik bo'lib, uning ham o'z me'yori bor. Yegulik ekan, deb har narsani har vaqt yeyish ham zarar...

Madaniyatni baland tog'lardan boshlanib, uzoq yo'lni bosib o'tuvchi daryoga qiyoslayman. Daryo irmoqlarga bo'linib, yo'l-yo'lakay go'shalar barpo qilib boradi. Qanchadan-qancha chanqoq qalblarga huzur-halovat baxsh etadi. Shunday ekan, aziz bolajonlar, sizlar ham har borada yuksalib boring. Buning uchun gazeta o'qish kerak, o'qiganlarni uqib, hayotga tadbiiq qilish sharti bilan...

Shu kuni bu mushtariy tahririyatimizga zavq-shavq ulashib ketdi. Axir qilayotgan mehnatimiz mahsuliga berilgan baho, kelajak avlod uchun qayg'urib aytilgan gaplardan shodlanmay, g'ururlanmay bo'ladi!

Ozod MIRZAYEV.

YETMISH YOSHLI MAKTAB

Ko'kka bo'y cho'zgan azim teraklar bag'rida joylashgan Shayxontohur tumani-dagi 84-umumiy o'rta ta'lim maktabning tashkil topganiga 70 yil to'ladi.

1126 nafardan ziyod o'quvchi ta'lim olayotgan ushbu maskanda malakali o'qituvchilar ko'pchilikni tashkil etadi. Bir qarashda boshqa ta'lim maskanlaridan farq qilmaydigan ushbu maktabda bo'lganimizda ko'plab xayrli ishlarning guvohi bo'ldik.

Ta'lim maskaniga tashrif buyurgan keksa o'qituvchilar, ilk qaldirg'och bitiruvchilar, ot-onalar, mahalla faollari hamda ko'plab mehmonlar bayram dasturi va turli sahna ko'rinish-

KUCH BILIM VA TAFAKKURDA

Maktabimizda «Qizlar klubi» tashkil etilgan bo'lib, unga Dilfuza Zohidova rahbarlik qiladi. Har oyda bir marotaba yig'ilish o'tkazilib, turli mavzularda suhbatlar olib boriladi. Kiyinish madaniyati, tashqi va ichki go'zallik, o'smir qizlar sog'ligiga e'tibor, odobing - ziynating kabi rang-barang mazmunli davra suhbatlari, uchrashuvlar klub faoliyatini yanada jonlantirmoqda. Giyohvandlikka qarshi «Yosh umringni xazon etma» mavzusidagi muntazam ravishda o'tkazilib turiladigan tadbirimiz ham o'quvchi yoshlarni hamisha hushyorlikka chaqiradi. Ta'lim maskanimizda kasbga yo'naltirish bo'yicha yumshoq o'yinchoqlar yasash, bichish-tikish, duradgorlik kabi to'garaklar faoliyat ko'rsatadi. O'quvchilarimizning darsdan so'ng shug'ullanishlari uchun barcha fan hamda sport to'garaklari ular ixtiyorida. Maktabimiz direktori, biologiya fanlari nomzodi Maylon Maqsudovning bolajonligi, tinib-tinchimasligi bois barcha sinf xonalarimiz to'liq jihozlangan. Sport bilan shug'ullanish uchun ham imkoniyatlar mavjud, - deydi maktabning ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari Muazzam opa Yahyoyeva.



Rasm shunchaki chizilmaydi. Kamalak jilosini qalbdan his qilgan

kishigina yetuk rassom bo'la oladi. 30 yildan buyon bolajonlarga tasviriy san'at va chizmachilik fanidan saboq beraman. Respublika miqyosida ushbu fan bo'yicha o'qitiladigan dasturning sinovi bizning maktabimizda bo'lib o'tdi. Saboq o'tiladigan fan kabinetimiz turli ko'rgazmali qurollari bilan birinchi o'rinni egalladi. Oddiy o'qituvchilimga qaramasdan kamtarin mehnatlarim evaziga «Shuhrat» medali bilan taqdirlandim, - deydi quvonch bilan Tolibjon aka Mahkamov.

43 yildan buyon bolajonlarga ona tili va adabiyotdan saboq berib kelgan 86 yoshli o'qituvchi Yoqubxon ota Zohidovni suhbatga tortdik:

Dastlab maktabimizda 4 smenada darslar o'qitilar edi. O'quv qurollari kam, kitoblar yetishmasdi. Ammo bunday kamchiliklar o'quvchilarga deyarli sezilmasdi. Sababi, o'qituvchilar har bir darsga puxta tayyorgarlik ko'rishar, tinmay o'z ustida ishlab, o'qib-o'rganishardi. Hozirgi o'qituvchi-yu o'quvchilarga havasim keladi. Keng va yorug' sinf xonalari, zamonaviy o'quv jihozlarning barchasi ular ixtiyorida. Nabiralaringa hamisha kuch, bilim va tafakkurning ildizidir. Faqat «a'lo» va «yaxshi» baholarga o'qinglar, deya takrorlayman.

Ha, ta'lim maskanida mehnat qilayotgan ustozlarning o'z kasblariga fidoyiligi bois bolajonlarning barcha fanlarni o'zlashtirishlari risoladagidek.

Ta'lim-tarbiya borasidagi kenglikda tenglikni saqlayotgan maktab jamoasiga olib borayotgan ishlariga chindan-da havas qilsang arziydi.

Jamila ERDONOVA.

Suratlar muallifi: Vitaliy MYASNIKOV.

laridan bahramand bo'lishdi.

«Xotira va qadrlash kuni» munosabati mazkur tadbir maktabda qo'shaloq ketdi, 20 yildan ziyod maktabga keksalik gashtini surayotgan shogirdlari 75 yoshni tabrikladilar.

Shomuhit-

Bosh mu-

ak a

bizga 3-

sinf

dan boshlab

saboq berganlar. Dars

jarayoni oddiy bo'lsa-da,

ammo dilimizga juda yaqin

edi. Kamtarin, shirinso'z... Bizga

saboq berayotgan paytlarida butun

vujudi bilan dars o'tayotganini har

daqiqa his qilib turardik.

Ustozimizning o'gitlariga amal qilib,

hayotda aslo kam bo'lmadik.

Ularning bilimdonligi va zukkoligiga

barchamiz havas qilardik.

Rahima SODIQOVA, sobiq o'quvchi: -

Maktab partasida o'tirib, uncha-

muncha she'r qoralab turardim. Bir kuni ustozimiz yozganlarimni o'qib turdilar-

da, harakat qilsang, sendan binoyidek shoir chiqadi, dedilar. Mirhamid akaning

so'zlari ijobat bo'lib, oliygo'hnini tugatganimdan so'ng «Tong yulduzi» (ilgarigi

«Lenin uchquni») gazetasida ishladim. So'ngra, O'zbekiston televideniyesida

faoliyat ko'rsatdim. Qator kitoblarim nashrdan chiqdi.

Meni ijod yo'liga boshlagan o'qituvchimdan bir umrga

minnatdorman.



QO'SHALOQ BAYRAM

bilan o'tkazilgan bayramga aylanib rahbarlik qilib, endilikda Mirhamid Mirahmedovni qarshilayotgani bilan samimiy

harriri: - Mirhamid

din MANSUROV, «O'zbekiston» NMIU

harriri: - Mirhamid

harriri: - Mirhamid

harriri: - Mirhamid

harriri: - Mirhamid

harriri: - Mirhamid

harriri: - Mirhamid

harriri: - Mirhamid

harriri: - Mirhamid

harriri: - Mirhamid

harriri: - Mirhamid

harriri: - Mirhamid

harriri: - Mirhamid

harriri: - Mirhamid

harriri: - Mirhamid

harriri: - Mirhamid

harriri: - Mirhamid

harriri: - Mirhamid

harriri: - Mirhamid

harriri: - Mirhamid

harriri: - Mirhamid

harriri: - Mirhamid

harriri: - Mirhamid

O'ZBEGIMNING HUR QIZLARIMIZ

Kulgumizdan uyg'onar tonglar, Mavjlanuvchi shaffof suvlarmiz. Qalbimizda jaranglar bonglar, O'yinqaroq sho'x ohularimiz. Shodliklarga burkab olamni, Go'zallikni kuylab yashaymiz. Dildan quvib qayg'u-alamni, Ezgulikni o'ylab yashaymiz. Qallda tuyg'u yuksak ijod-u, Zulfiyaning biz izlarimiz. Chehramizda jaranglar kulgu, O'zbekimning hur qizlarimiz.

SHE'RIM

She'rim, sensan bahorday quvnoq, Yoshligimning ajib lavhasi. She'rim, sensan orzularday oq, Dil daftarim ilk sarlavhasi. She'rim, o'zing shodlikka to'lgan, Hayotimning ilhomchisisan. Yuragimga o'yib bitilgan, Ijodimning zar tomchisisan.

Nodira SAGATOVA,
Toshkent Xalqaro uyi litseyining 11-sinf o'quvchisi.

TALABA FARRUHDAN TALABLAR

Talaba bo'lishni kim istamaydi, deysiz. Umming oltin davri ham talabalikda bilim olasiz, ham dunyoqarashingiz kengayib, umr yo'lingizda asqotadigan kasbni tanlaysiz. Do'st-dugona tutinganlar esa bu davrning nechog'lik bebaholigini yillar o'tib anglaydilar. Mabodo talabalik davringiz otangiz, aka-bilan bir xil bo'lsa, davrning o'zgarishlari **Havas** sizlarga nimalar berayotganidan yana bir zavq-u shavqingiz yuksaldi, deyavering. Farruh akangiz huquqshunoslar sulolasidan. Ularning oilasini nafaqat Buxoroda, balki O'zbekiston va MDH davlatlarida ham yaxshi tanishadi. Mirbafo ota O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan huquqshunos, militsiya mayori, dadasi Husan aka, amakilari Mustafo, Hasan, Komil, Shomil, Shokir esa O'zbekistonning mustaqilligi uchun kurashgan, afsuski, endilikda ayrimlari oramizda yo'q, kerak bo'lsa, jonini ham fido qilgan yurt posbonlaridir. Ular uchun kecha yoki kunduz yo'q. Faqat osmonning musaffoligi, ona yerimizning tinchligi bor. Shuning uchun ham ular hamisha sergak, hamisha ish ustida.

Garchand bobolari Mirbafo, amakilari Hasan va Shomil aka oralarida yo'q bo'lsa-da, do'stlari, ulami bilgan va ulardan yaxshilik ko'rgan odamlar bu aziz insonlarni doim eslashadi. Shirin xotiralar Farruhjonga qanot, g'ururlantiruvchi bir omil. Ibragimovlar sulolasini davom ettirish baxtidan mamnun. Qolaversa, Farruhjonning og'a-inilari, aytaylik, Ruslan IIV akademiyasida 3-kursda o'qimoqda, Farruhning o'zi Buxoro huquqiy maishiy xizmat kasb-hunar kollejida o'qiydi.

Do'stlariga g'amxo'r Farruhjon 1-kursdan 3-kursgacha guruh sardori bo'lib, barcha fanlardan a'lo darajada o'zlashtirib bordi. Huquqshunoslik fan olimpiadasida shahar bo'yicha, viloyat bo'yicha 1-o'rnlarni egalladi. Kollejda o'tkazilgan barcha tadbirlarda faol ishtirok etarkan, bundan albatta bobolari, otalari tanlagan og'ir va mashaqqatli yo'lda ularga sodiqligidan quvonadi. Onajoni farzandlariga doim bobosining oila sha'ni va kasbning sha'ni muqaddasligini, bu nomga dog' tushmasligi kerak degan gapini takrorlaydi. Ana shu sha'n shavkati uchun Farruh ham tinimsiz harakatda, izlanishda. Qolaversa, talaba Farruhdan hozirgi talab ham shundaydir.

Ruslan MIRZAYEV.



Sinfdoshim, xayr endi,
Yiroqlashib ketmoqdaman.
Nurli olam ertagidan,
Uzoqlashib ketmoqdaman...

YANGRA, SO'NGGI QO'NG'IROQ!

Xayr, maktabim!

Bitiruvchi sinflarni ko'rib qachon men ham ulardek bo'lar ekanman, deb orzulagandim. Mana endi o'zim ham bitiruvchiman. Hozir barcha iliq tilaklar, she'rlar-u-qo'shiqlar tugaydi-yu, biz uchun qo'ng'iroq so'nggi bora bong uradi. Negadir uning chalinishini istamayman. Ilgari «Qani tezroq qo'ng'iroq chalinsa-yu,

dars tugab, tanaffus boshlansa», deb kutardim. Endi esa... O'tgan yillar ichida qadrdonimga aylanib qolgan maktab dargohimdan sevimli ustozlarimdan va eng yaqin do'stlarimga aylangan sinfdoshlarimdan ham ajralgim yo'q.

Nima bo'lganda ham, bu kunlar biz - sinfdoshlarning yodimizda abadi-abad saqlanib qolsin hamda kelajakda bilimli, hunarli, eng asosiysi, yurtga kerakli insonlar bo'lib yetishaylik.

Sevara TOSHPOLATOVA,
Shayxontohur tumanidagi
299-maktabning II- «B» sinf
o'quvchisi.

USTOZLARDAN MINNATDORMIZ



Mana, biz quvonch va alam aralash kutayotgan 25-may ham yetib keldi. Quvonchi hammaga ma'lumku-ya, alamlil tomoni shundaki, biz endigina yangi maktabda o'qiyapmiz, deb quvonayotgan bir pallada bitirib ketishimizdir. Biz

tezroq yangi maktabimiz bitishini, unda yayrab o'qishni uzoq kutdik. Nihoyat, 9-sinfni yangi maskanda o'qish nasib etdi.

Maktabimiz Toshkent viloyati hokimi Akmal aka Isaboyev tashabbusi bilan 2005-yilda to'liq rekonstruksiya qilindi. Yangi maktabimiz hozirgi zamon talablariga to'liq javob beradi. Keng va yorug' sinf xonalari, sport anjomlari bilan to'liq jihozlangan sport zali, kompyuterlar... Shunday shart-sharoitlar uchun biz avvalo yurtboshimizga, keyin viloyat hokimi Akmal Isaboyevga, Xalq ta'limi boshqarmasiga, maktabimiz rahbari ustozlarimiz Xolida opa, Malika opa, Marhamat opa, Latofat opaga o'z minnatdorchiligimizni bildiramiz.

Ma'fura JAMOLIDDINOVA,
Toshkent viloyati, Zangiota tumanidagi
29-maktabning 9- «A» sinf o'quvchisi.

So'nggi qo'ng'iroq sadolari kechagina maktab quchog'iga shoshilayotgan o'quvchilarni bugun mustaqil hayotga kuzatmoqda. Ustozlarning hamda bitiruvchilarning hayajonlari cheksiz. Kimningdir ko'zlarida yosh halqalanadi. Kimdir shu yillar mobaynida tahsil olgan bilim maskaniga qayta-qayta boqadi... Yunusobod tumanidagi 143-maktab bitiruvchilarining ham yuz-ko'zlaridan hayajon balqib turibdi. Sinf rahbari Shoira opa Karimberdiyeva bilan 9-sinf o'quvchilari oldiga bordim. Bir-birlariga gal bermay suhbatlashayotgan bitiruvchilarning kelgusidagi rejalari bilan qiziqdim va quyidagi javobni oldim:

Shoasror SHOISMOILOV,
9- «B» sinf o'quvchisi:

Men avvalo sinf rahbarimiz Shoira opa haqida gapirmoqchiman. Ular bizga geografiya fanidan dars berish bilan birga, bizning sinfimizga sinf rahbari hamda ruhshunos vazifasini ham bajaradilar. Hademay maktabdan har tomonga tarqalib ketamiz, men bizga ta'lim bergan barcha ustozlarimizga chin dildan minnatdorchilik bildirmoqchiman. O'zimga kelsak, kelajakda huquqshunos bo'lmoqchiman. Tarix, iqtisod, huquq fanlarini sevib o'qiyman. Kelgusida tanlagan soham uchun kerakli bo'lgan ma'lumotlarni to'plab, ularni o'zlashtirib borishga harakat qilayapman. Yoshligimdan bu kasbga juda qiziqardim. Sud jarayoni bor bo'lgan har bir badiiy filmni nazardan qochirmay ko'rib borardim. Maqsadim - huquqshunos sifatida barcha odamlarga yordam berish.

Sharofxo'ja
MIRZAXO'JAYEV, 9- «B»
sinf o'quvchisi:

Maktabni bitirgach, Turizm kollejiga o'qishga kiraman. Shu paytgacha «Kim bo'lsam ekan?» deya ko'p o'ylagandim. Turizm kollejiga uyushtirgan sayohatimizdan keyin bir qarorga keldim. Kelajakda gidturagent bo'lmoqchiman.

-Bu soha haqida tushunchaga egamisiz?
-Albatta. Gidturagent chet ellik sayyohlarni turli yodgorlik bilan, shahrimizning eng chiroyli joylari bilan tanishtiradi. Buning uchun chet tillarini yaxshi bilish talab qilinarkan. Men ham o'z ustimda ishlab, chet tillarini yaxshi va tez o'zlashtirib olishga harakat qilaman.



Nurbek FOZILOV, 9-sinf
o'quvchisi: - Men farmatsevtlik kasbini tanladim. Kelajakda orzularim bisyor. Ulardan bittasi-xususiy dorixona ochish.

Zahro ABDOVALIYEVA,
9- «A» sinf o'quvchisi:

Men kelajakda bolalar shifokori bo'lmoqchiman. Bu kasbni tanlashimning boisi oyijonimga juda havasim keladi. Ular ko'z shifokori bo'lib ishlaydilar. Yoshligimdan ularning ishlarini ko'rib, havas qilib o'tirardim. Ulg'aygach, hech ikkilanmasdan mana shu kasbni egalladim. Bundan tashqari, sinf rahbarimiz Dilshoda opa Toshmuhammedova ham biz bilan tanlagan kasblarimiz haqida ko'p marta suhbatlar uyushtirib, tanlagan kasbimizga qiziqishlarimizni yanada oshiradilar.

Diyora TO'RAYEVA, 9- «B» sinf o'quvchisi:

Maktab qo'ynidan ketishimiz qiyin kechadi, albatta. Ammo vaqt kutib turmas ekan. Ko'z ochib yumgunimizcha 9 yil o'tib ketibdi. Katta hayot ostonasida turar ekanmiz, ustozlarimizning bergan nasihatlariga amal qilishga, ularning yuzlarini yerga qaratmaslikka so'z beramiz. Barcha bitiruvchilarga tilagim shuki, hammalari o'zlari tanlagan soha bo'yicha o'qishga kirishlarini istardim.

Ozoda TURSUNBOYEVA suhbatlashdi.

Nozima ISMOILOVA, 9- «A»
sinf o'quvchisi:

Men kelajakda iqtisodchi bo'lmoqchiman. O'z ixtisosligim bo'yicha bankda ishlab, yurtimga nafi tegadigan inson bo'lish niyatim bor.




Nigora QODIRBEKOVA, 9- «A»
sinf o'quvchisi:

Men kichkinaligimdan tikuvchilikka juda qiziqardim. Bu kasb bo'yicha poytaxtimizdagi «O'ktamxon» o'quv markazida o'qidim. Hozir esa o'zimga, dugonalarimga bemalol ko'ylak tika olaman. Yangi ko'ylaklarning dizaynlarini yaratishga harakat qilaman. Kelajakda esa olgan bilimlarimni yanada boyitish maqsadida, Politexnika kollejining tikuvchi-dizaynerlik kursida o'qimoqchiman.

Umid IKROMOV, 9- «A» sinf o'quvchisi:

Men huquqshunoslik kasbini tanladim. Maktabimizda o'tkaziladigan barcha

tadbirlarda faol qatnashib turaman. «Siz huquqni bilasizmi?» tanlovini, «Zakovat» intellektual o'yinlarini tashkil-lashtirib, o'quvchilarni bilimli bo'lishga undayman. Maktabda «Kamolot» YIHning tashkiliy ishlari bo'yicha sardorman. Kompyuterlarni dasturlashtirishga, axborotlashtirishga qiziqaman. Tanlagan kasbim bo'yicha yurtimiz odamlariga nafim tegsa, bundan boshim osmonga yetardi.



Anvar ABDUJABBOROV,
9- «A» sinf o'quvchisi:

Kelajakda iqtisodchi bo'lmoqchiman. Bu sohani tanlashimda albatta ustozlarimning o'rnlari beqiyos. Kimyo, fizika fanlariga juda qiziqaman. Fizika fani ustozimiz Zamira opa Abdusattorovadan, kimyo fani ustozimiz Hafiza opadan bir umr minnatdormiz.

ENG MUHIMI - INSON BO'LISHSIN!

Bu yilgi maktab bitiruvchilarning ko'nglidan nimalar kechayotganini hamma so'raydi. Lekin ustozlar-chi? Ular nima deyisharkin? 9 yil ichida farzandiga aylanib qolgan o'quvchisini uchirma qilish ularga ham oson emasdir. Ustozlar ko'nglini bilish maqsadida, bu yilgi bitiruvchilarimizning sinf rahbari bilan dildan suhbatlashdim.

Matluba TURDIYEVA, matematika fani
o'qituvchisi:

Men 1974-yilda Shayxontohur tumanidagi 84-maktabda ish faoliyatimni boshlaganman. 1996-yilda Xalq ta'limi fidoyisi unvonini oldim. 46-maktabga 2002-yilda matematika o'qituvchisi bo'lib keldim. Shu bilan birga 9-sinfga rahbarlik ham qilaman. Shu kunlarda bitiruvchi o'quvchilarimni bitirish imtihonlariga tayyorlayotgan bo'lsam, bir tomonda ularni so'nggi qo'ng'iroq bayramiga hozirlik ko'ryapmiz. Bu yilgi 9-sinflar mening qo'limdan 3-marta uchirma bo'layotgan o'quvchilardir. Ularga tilagim shu: Doimo bir-birlari bilan ahil bo'lishsin. Ular ona vatanimizga sodiq inson bo'lishsin. Eng muhimi, inson bo'lishsin. Ularga mustaqil hayot ostonasida eng yaxshi tilaklarni bildirib qolaman.

Ma'suda UMAROVA:

19 yildan buyon shu sohada ish faoliyatimni olib boryapman. Shogirdlarim juda ham ko'p. 1992-yildan buyon ikkita 9-sinfni uchirma qildim. Men rahbarlik qilayotgan sinf bu yil 7-sinfni tugatishayapti. O'quvchilarimning maktabni bitirishlariga hali 2 yil vaqt bor. Imtihonlarga tayyorgarlik avjida. Dars soatlarimdan bo'sh vaqtlarimda o'quvchilarim bilan iloji boricha o'zim shug'ullanyapman. Ularning katta hayot oldidagi hayajonlaridan mening hayajonim ham kam emas. Chunki ular imtihonlarni a'lo baholarga topshirib olishsa, bu menga ham qo'yilgan bahodir. Orzularim juda ko'p. Farzandlarimiz hayotda o'z o'rnini topib, ota-onalari orzulagandek xalq uchun kerakli insonlar bo'lib yetishishlarini, mehnatsevar, vijdonli insonlar bo'lishlarini tilayman. Kelajakda yaxshi o'qishlarga kirib, biz - ustozlarni bergan bilimimizni oqlashsa deymen.

Abdullo HAMIDULLAYEV,
Sobir Rahimov tumanidagi 46-maktabning 7-sinf o'quvchisi.





O'tayotgan Kitob bayramlarining dovrug'i respublikamiz bo'ylab yoyildi. Ma'naviyatimiz yuksalishiga hissa qo'shadigan bunday bayramlarni palagi toza, kelajagi buyuk odamlarimiz hamisha qo'llab-quvvatlaydilar-da... «Ulug'imsan, Vatanim!» shiori ostida o'tkazilgan bu anjuman aslida Toshkent-u Andijonda o'tkazilib, ommaviylashib qolgandi...

Kitob bayrami gullar shahri bo'lmish Namanganda esa yana o'ziga xos qiyofada o'tdi. Toshkentlik taniqli ijod ahli fayz qo'shgan Zahiriddin Muhammad Bobur nomli madaniyat va istirohat bog'i kitob muxlislari bilan o'tdi. O'zbekiston xalq shoirasi Oydin Hojiyeva, taniqli shoir Husniddin Sharipov, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisining o'rinbosari, «Sharq yulduzi» jurnali Bosh muharriri Minhojiddin Mirzo, taniqli shoirlar Barot Isroil, Xosiyat Rustamova, Qo'chqor Norqobil, «Tong yulduzi»

litsey hamda kollejlilar, o'rta maktablarning o'qituvchilari, talaba va o'quvchilar nashriyotlar tomonidan chop etilgan eng yaxshi kitoblar va ularning sifatli tayyorlanishiga o'z hissasini qo'shgan taniqli noshirlar, mualliflar,



sensan eng go'zal chaman» ko'rgazmasiga qo'yilgan kitoblar kutubxona jam'armasiga tortiq etildi. - Kutubxonamiz jam'armasida 476 mingdan ortiq kitoblar mavjud bo'lsa ham, keyingi yillarda aytarli yangi kitoblar olmagan edik, - deya o'zining minnatdorlik so'zlarini boshladi kutubxona direktorining o'rinbosari Ra'noxon Karimova. - Toshkentdagi nashriyotlar tomonidan uyushtirilgan ko'rgazma va tortiqning qadrini hech nima bilan qiyoslab bo'lmaydi. Chunki, bozor iqtisodiyoti davrida bilimning, ayniqsa, kitobning qadri vaqt o'tib bilinadi. Bunday qiyosi yo'q katta ma'naviy yordam uchun Matbuot va axborot agentligiga cheksiz minnatdorlik bildiramiz.

Bog'ning ochiq maydonida yoki sportchilar o'rtasida Matbuot va axborot agentligi sovrini uchun sportning eng ommaviy turlari bo'yicha musobaqalar o'tkazildi. G'oliblarga qimmatbaho sovg'alarni Agentlik Bosh direktorining o'rinbosari Safojev topshirdi. Uchrashuvlar, muloqotlar, suhbatlar... ko'p bo'ldi o'sha kuni. Ularni suratlariga olishdi, videotasmlarga tushirishdi, qalblarga muhrlashdi. Ana shunday uchrashuvlardan biri 26-Mehribonlik uyida bo'lib o'tdi.

Kitob insondan hech nima tilamaydi, ammo uni kamolga yetkazadi. «Otlar so'zi»

QAYLARDASIZ, ONAJONIM - EY!

...Bolalar. Ota-ona, qarindosh-urug'lar, siz-u bizning mehrimizga hamisha zor bolalar... Asadbek, Baxtiyor, Malika... Ular 105 nafar. Bu o'g'il-qizlar ularning intizorlik bilan boqayotgan ko'zlariga tikilib,

«KITOBDIN YAXSHI DO'ST YO'Q JAHONDA»

Umida Abduazimova, «G'uncha» jurnali Bosh muharriri Yoqutxon Rahimova... Ularning yozgan asarlari, yaratgan gazetasi Bosh muharriri yozuvchi va shoirlar bilan hamsuhbat bo'ldilar, yaqindan

Kitob-u gazeta va jurnallari ko'plab noshir va hamrohligida shu boqqa ko'chdi. Namanganlik kitobsevarlar esa erta tongdanoq diydorlashuv uchun bu so'lim go'shaga oqib kalavardilar. Bog'ning qoq markazida, ulkan favvara atrofida respublikamizning taniqli noshirlarini o'z safiga birlashtirgan «O'zbekiston», «O'qituvchi», «G'afur G'ulom», «Cho'lpon» nomli nashriyot-matbaa ijodiy uylari, «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, «Sharq» nashriyot-aksiyadorlik kompaniyasi, viyat», «Yangi asr avlodi» nashriyotlarining eng sara ko'rgazma tashkil etilgan. «Kitobdan bezatilgan. «Kitobdan bilgan kishiga, shubhasiz jondur kitob», «Kitob-tafakkur qanotidir», «Kitob-bebaho mo'jiza» singari shiorlar bu yerga shoirlar, olim-u o'quvchilar, e'tiborini o'ziga «Ulug'imsan, bu yerda o'tayotgan bayrami tantanasini yozuvchilar Namangan viloyat Ziyoviddin ochdi. Kitob bayrami qatnashchilarini hokimi Ikromxon O'zbekiston agentligi Bosh o'rinbosari O'tkir Respublikasi Oliy texnologiyalari masalalari qo'mitasi raisi, taniqli yozuvchi Xurshid Do'stmuhammad so'z olishib, kitoblarning ma'naviyatimizni yuksaltirishdagi, dunyoqarashini shakllantirishdagi o'rni beqiyos katta ekanligini alohida ta'kidlab o'tdilar. Bayram ishtirokchilari viloyat va shahar hokimliklari, yirik korxonalarining rahbarlari, oliy o'quv yurtlari,



g'afur G'ulom» nashriyot-matbaa ijodiy uyi bosh muharriri Nazira Jo'rayeva, «Cho'lpon» nashriyot-matbaa ijodiy uyi Bosh muharriri o'rinbosari Shoym B o' t a y e v bilan bo'lgan yosh kitobxonlar uchrashuvlari qizg'in bahslarga aylanib ketdi. Bog'ning so'lim go'shalaridan biriga she'riyat ixlosmandlari to'planishdi. Bu yerda ona - Vatani, mehr-oqibat, insoniylik, sevgi va muhabbat haqida she'rxonlik tushgacha davom etdi. Oydin Hojiyeva, Umida Abduazimova, Husniddin Sharipov o'qigan she'rlarni muxlislar qarsaklar bilan olqishladilar. Bunday esda qolarli, jozibali uchrashuvlar Namangan Davlat universitetida ham bo'lib o'tdi.

Yig'ilgan yozuvchi va o'qituvchilar, talaba-yu barcha-barchaning tortadi. «Ulug'imsan, Vatanim!» shiori ostida respublika Kitob O'zbekiston uyushmasi bo'limi raisi Mansurov Namangan viloyati Najmiddinov qutladi. Matbuot va axborot direktorining birinchi Jo'rayev, O'zbekiston Majlisi Qonunchilik palatasi Axborot va kommunikatsiya texnologiyalari masalalari qo'mitasi raisi, taniqli yozuvchi Xurshid Do'stmuhammad so'z olishib, kitoblarning ma'naviyatimizni yuksaltirishdagi, dunyoqarashini shakllantirishdagi o'rni beqiyos katta ekanligini alohida ta'kidlab o'tdilar. Bayram ishtirokchilari viloyat va shahar hokimliklari, yirik korxonalarining rahbarlari, oliy o'quv yurtlari,

Kitob har qanday bilimning joni va yuragi, har qanday fanning ibtidosidir. Stefan Sveyt.

«VATAN, SENSAN ENG GO'ZAL CHAMAN...»

O'sha kuni Nodira nomidagi viloyat markaziy kutubxonasi yanada gavjum bo'ldi. Bu yerda bunalik ko'p taniqli shoir va yozuvchilar, noshir va jurnalistlar to'planishmagandi. Poytaxtdagi nashriyotlar jamoalari kutubxonada mustaqillik davrining eng yaxshi kitoblaridan iborat ko'rgazmani tashkil etib, keng kitobxonalar ommasi bilan erkin ijodiy muloqot o'tkazdilar. Bu yerdagi «Vatan,

ularning ijod namunalari bilan tanishdilar. Ko'rgazmalar oldi juda gavjum bo'ldi. Keksa-yu dilingizda o'zgacha bir hissiyot, entikish uyg'onadi. Beixtiyor ularni quchoqlab olib, bag'ringizga bosasiz. Yuzlaridan «cho'lp-cho'lp» o'pganingizni bilmay ham qolasiz. Ularga ham ilm xazinasi bo'lmish turfa kitoblar olib kelishdi. Shoirlar ham, tarbiyalanuvchilar ham she'rlar o'qishdi. Ota va bolalarday dildan suhbat bo'ldi. Kitoblar ulashildi. Mehribonlik uyi tarbiyalanuvchisi Malika Ahmedova so'z olib, o'zi ijod qilgan quyidagi satrlarni o'qiganda, ko'zlarimizdan tirqirab yosh chiqib ketdi: Sizga o'xshash ayolni ko'rsam, Deyman qo'ldan bir bora o'psam, Mayli edi, jilmayib qolsam, Qaylardasiz, Onajonim - ey! ...O'sha kuni Toshkentdagi yirik tuhfasi bo'lmish 2,5 million so'mlik Mehribonlik uyi kutubxonasi jam'armasidan joy oldi. Bu kitoblarni mutolaa qilgan o'g'il-qizlar orasidan bir kunmas-bir kun yetuk insonlar, taniqli olimlar yetishib chiqsa, ajabmas. Shu kuni respublika kitob bayramida qatnashgan kekxa-yu yoshning qalbidan shunday so'zlar baralla yangradi: «Ota-onamizga kitoblar hadya etamiz». «Tug'ilgan kunlarda kitob sovg'a qilamiz!» ...Namanganda respublika Kitob bayrami uchrashuvlar, voqealar og'ushida o'tdi. bolalarning quvonchi yanada cheksiz bo'ldi. Haqiqatan ham shunday bayram bo'ldiki, bir umr esda qolarli, necha-necha yillarga tatigulik...

Kitobdin yaxshi do'st yo'q jahonda, G'amxo'ring bo'lgay u g'amli zamonda. U bilan qol tanho, hech bermas ozor. Joningga yuz rohat beradi takror. Abdurahmon Jomiy.



Ular 105 nafar. Bu o'g'il-qizlar ularning intizorlik bilan boqayotgan ko'zlariga tikilib,

shunday unutilmas O'z'lari sevgan kitoblarni xarid qilgan Haqiqatan ham shunday bayram bo'ldiki, bir umr esda qolarli, necha-necha yillarga tatigulik...

Mol-dunyoni qancha termagin, u tugaydi, olqinadi. Yozilsa-chi, so'z abadiy qoladi, olamni kezadi. Yusuf Xos Hojib.

Suratlarda: Respublika Kitob bayramining unutilmas lahzalari. Muallif olgan suratlardir.

Xonadonda chiroq bo'lmagisi mumkin. Lekin kitob bo'lmasa, bu go'shaning kanduzlari ham zimistonidir. Abdulla Qahhor.

Jabbor RAZZOQOV.

(Davomi. Boshi o'tgan sonlarda).

Oldingi sondagi «KATTA ARIQDAGI UY» bobini «MUZAFFARNING O'G'LI» bobidan keyin o'qing.

-Atrofda hech kim yo'q edi. Kecha yoqqan yomg'irdan dalalar bilq-bilq loy. Shpilka etigim tuproqqa botib ketyapti. Mahmuda xolangniki ham.

-Shpilka nima, buvijon?

-Sochga taqadigan sanchqi.

-Nega unda shpilka etigim deysiz?

-Etigimning poshnasi ham mixdek ingichka edi-da. Shunaqa oyoq kiyimni kiyaverib mening ham, Mahmuda xolangning ham oyoqlarimiz suyagi endi qiyshayib o'sib qolgan. Modaning ketidan quvib yashabmiz-da.

-Mahmuda xolam haliyam modniytsalar-ku.

-Ha, endi o'zini bilgan, pulini topib, yo'lini qilganlar Hajga borishni moda qilishyapti. Olloh chaqirsin ekan, modnitsa Mahmuda xolang ham hademay Hoji ona bo'ladi.

-Dalada nima qildinglar?

-Hojiakbar amakingni qidirdik. Uzoqda qo'ylari bir to'p bo'lib kavshanib yotibdi. Oldida o'to'lanlar. Amaking yulib olib kelibdi chog'i.

Qo'ylarini sira xafa qildirib qo'ymasdi. Ikki nafar qo'yni o'n yettita qilguncha sotirmay, so'ydirmay, bir o'zi parvarishlagan amaking. Qish kunlari mahallamizdan chetga chiqib, ko'p qavatli uylardan «qotgan non» yig'ardi. Yozda esa ko'chalarni to'ldirib, ketardi

boqqani ketardi dalalarga...

Qurbonlikka bittasini so'yaylik, deb qassobni aytib kelganimiz esimda. Oyog'i kuygan tovuqdek u uydan bunisiga kiradi, bunisidan unisiga. Ko'zlari yanayam qop-qorayib, yiltillab turibdi. Oxiri chidab turolmadim. So'yimg, dedim, bozordan boshqa qo'y olib kelimiz...

Shunday qildik. Yangi qo'y keltirib so'ydik. Xullas, daladan yana amakingning daragini topolmadik. Baqirib-chaqirib ko'rdik. Chaqirib- baqirib ko'rdik. Osmonga uchganmi, yerga kirganmi, hech qayerda yo'q edi. Shu payt xayol bilan oyog'im ariq bo'yidagi do'ngalak ustida yiltillab turgan pleyonkani bosib, chuqurga sho'ng'ib ketdim. O'g'lim kirgan yerga men ham kirib borardim... «Dod» deb yubordim. Mahmuda chopib kelib qo'limdan ushlagancha u ham orqamdan pastga tushib ketdi. Hushimizni yig'ib, opa-singil bir-birimizga qarab, ahvolimizdan qo'rqib ketdik. Lablarimiz oqarib ketgan, ko'zlarimiz ola-kula... Shu payt bu yer chinakam uy ekanini ko'rdik. Tashqarida, shunchaki tuproqlar orasiga qorishib yotgan pleyonka deraza vazifasini o'tashini angladik. Kavlab, to'rtburchak shakliga keltirilgan xona shinamgina edi. Tepada o'g'limning qushlari turadigan in, yarmi ochilib ishlatilgan guruch paketi, mosh, kartoshka, piyoz qoldiqlari... Eng asosiysi, men qachonlardir buvingnikidan keltirgan mangalka qozoni bilan shu yerda edi. Bundan ham jahlim chiqdi, ham qiziqishim ortdi.

-Hojiakbar bu yerga ko'chib kelib olgan ekan-ku. Ovqat ham pishirisharkan. Siz esa undan xavotir olib, och qoldi, nima yeb, nima ichib o'tiribdi, deb yuribsiz.

Mahmuda xolang hushimni o'zimga keltirdi.

-Mangalka nima, buvijon?

-Mangalka - chelakning qornini yorib, ustiga loy qorib qilingan o'choq, bolam. Bu o'choqni ko'tarib istagan joyda osh-ovqat qilish mumkin.

Shu kuni Hojiakbarning nega uyga horib kelishi-yu, savol so'rasak, miq etmay uyquga ketishining sirini bilib oldik. Chunki u uydan qochgan Muzaffarga uy qurib bergan, uni osh-ovqat bilan ikki oy davomida ta'minlab yurgan ekan.

-Buvijon, nega bolalar uyidan qochadi?

-Nega bo'lardi? To'qlikka sho'xlik qilib qochadi-da.

Endi urf bo'layotgan charm kostyumini dadasi maktabga kiyib chiqmagin, ayrim ota-onalar bolangiz bolamni ko'nglini cho'ktiryapti, chunki biz unga bunaqa usti-bosh

olib berolmaymiz, deganini aytibdi. Muzaffar ko'nabdi. Dadasi temir yo'lda ishlardi. Bir ketgancha bir, bir yarim oyda uyiga qaytardi. Bu safar ustozlari o'g'lidan shikoyat qilishibdi. O'qishni unutib, kiyim-kechakka ruju qo'rganini, shirinliklar sotib olib bolalarni mehmon qilishga tushib ketganini aytilibdi. Otasi uni urishibdi. Shundan arazlab, uyidan ketib qolibdi Muzaffar...

Amaking esa unga boshpana yasab beribdi. Hojiakbar o'g'limning xo'p alomat ishlari bor edi-da, aytbersam, ado bo'lmaydi...

Buvim amakingning o'n yettita qo'y boqqanlarini aytib berdilar.

-Men ham qo'y boqaman.

-Men ham qo'ylarimni sotib, buzoq olaman.

-Buzog'imni sotib ot.

-Otni sotib, fil...

-Fildan gapirma. O'shanda «Fillar mening do'stlarim» degan film yangi chiqqandi. Mazza qilib ko'rardik.

Bir kuni amakingning buzog'i yotganicha turmay qoldi. Yaqinroq borib qaragam, qorni shishib ketibdi. Qish edi. Yerda qor yo'q edi-yu, sovug'i etni junjitardi. Kun bo'yi u bilan ovora bo'ldi o'g'lim. O'rtoqlarini chaqirib maslahatlashdi. Yog' ichirdi, ichiga shlanka yuborib, yog' quydi. Terisini ko'tarib, bigiz

tiqdi. To'p-to'p mineral suvlar ham kor qilmadi. Mol doktori ko'rib, so'yib

yuboringlar, margumush yeganga o'xshaydi, dedi.

O'g'limning bir dardi ikkilandi. Axir baland qavatli uylardan o'zi keltirgan nonlarni bo'ktirib bergandi-da. Ular orasida sichqon tekkani kammidi deysan. Tun og'ib, tong oqaryapti hamki, Hojiakbar buzog'i bilan ovora-yu sarson. Men charchab ketdim. Ibrohimning buvasi Bahodir sinfdoshimni chaqirdim. U pichog'ini charxlab, kel, o'g'lim, jonivorga jabr qilma, so'yib yuboraylik, dedi. Qayoqda ko'nsa, hali buzog'ini qashlaydi, hali bizga tashlanadi:

-Kirib yotingla-a-r. Ishingiz bo'lmasin. O'zim qarayman...

-Bahodir ham har ehtimolga qarshi, deb pichog'ini qoldirib, bo'lgancha bo'lar deb uyiga chiqib ketdi.

Uxlab qolibman. Ko'zimni ochdim-u, hovliga yugurdim. Beixtiyor oq g'ilof yopingan kattakon filni ko'rdim. Ha, hovlimiz o'rtasida o'g'limning oppoq jildli ko'rpasini ustiga yopgan buzoq dahshatli darajada kattarib cho'zilib yotardi. O'g'lim esa uning oyog'i tagida isiriq tutatib, muzlab qolmasligi uchun kurashardi.

Shu payt o'sha fil, ya'ni, fildek semirib shishib ketgan buzoq bir silkinib o'rnidan turdi-yu,

ko'rpasiga ham, o'g'limga ham qaramasdan hammayoqni bulg'ab yubordi. Usti-boshi rasvo bo'lgan Hojiakbar behad mamnun edi. Buzog'ini silab -siypab aylantirsh bilan mashg'ul edi... Shunaqa, amakijoning jonlini bejon qilishni sira o'ylamasdi. Hatto uyda suvdan chiqqan ilonni chelakda boqqan ham, tipratikanlarni ko'paytirib, ari-yu tillaqo'ng'izlarga yemish izlagan ham -o'zi edi. Ammo o'zining g'amini o'zi yeyolmadi. Biz ham dardining davosini topolmadik...

-Suydirgani kelganim,

Kuydirgani kelganim,

Dunyoning ishlaridan,

To'ydirgani kelganim.

Polvon bolam, mard bolam,

Menga armon, dard bolam,

Sening qolgan umringni,

Yashamog'im shart bolam...

Buvijonim sekin-asta

shivirlab she'rlarini o'qib ketaveradilar:

-Yig'lab- siqtab ko'naman,

Vulqon bo'lib so'naman.

Bir beorom qush misol,

Shoxdan-shoxga qo'naman.

-Buvi-i, buvij-o-n, yig'lamang, -deyman, -Abduhalillar qarayapti.

-Qarasa qarayversin,

shu Abduhalilning dadasi Hojiakbar qayerda ekanligini bilardi. Lekin aytmadi. -Yur, o'rtog'ingni qidirib kelamiz desam, Qayoqdan qidiramiz, derdi. Men baland uylar atrofida o't yulib yurganmikan, desam, yuring, derdi va birga borib yana birga qaytib kelaverardi... Men mabodo, yur, narigi mahalladadir, - desam unga ham ko'nardi. Birgalashib qidirgan bo'lardi. Ammo topilmasdi Hojiakbar...

Keyin esa, o'g'lim o'zi kelganida unga shivirlab, qilib bo'ldinglarmi, degan gaplarini eshitib qolardim. Anglardimki, o'g'lim qayerdaligini bilardi u. Ammo aytmadi... Buvim shunday deb she'rlarini qo'shiq qilib aytaverardilar.

-O'kinib ham o'tinib,

Har lahza oh yutinib,

Yashar bo'ldim kun ko'rmay,

Men - do'zoxning o'tini...

-Buvi, buvijon. Unday demang, amakilarim,

dadam ham o'g'illaringiz-ku. Men ham...

-U bosh farzandim edi. U boshqacha edi...

-Men ham boshqacha bo'laman.

-Umring o'xshamasin, iloyim...

-Bo'ldi, buvi, buvi-i-ijon, menga ham amakimnikida qo'y olib berasiz. Ikkita. Ikkitanini o'n yettita qilib olaman.

-Keyin-chi?

-Keyin ularni sotib sizni Makkatilloga olib boraman. Makkatilloda yuribdilar amakim...

Buvimning o'zlari aytgan gaplari esimga tushib ketadi:

Makkatillodalar, Hojiakbar amakim...

Buvim esa meni quchoqlab ko'z yoshlarini yuzimga surtadilar.

-O'zim o'rgilay sen bilag'on bolamdan. Sengina dardkash-u dildash nevaraginamdan!

(Davomi bor).

YOZILMAGAN KITOB



Umida ABDUAZIMOVA.

SARIQ BUZOQNING FILGA AYLANGANI HAQIDA



— Духтараки хаймарӣ,
Гул ба кучо мебарӣ?
— Мебарам дастаи гул
Ба сӯи растаи гул.
Шавад дастаи бозор,
Аз гули ман лозазор.
Фарёд занам:
— Хой, мардум!
Хонетон пури гандум!

РАСТАИ ГУЛ

Дастагул аз ман харед,
Ба модари худ баред.
Бобочон, имруз аз гул
Дарег надор асло пул.
Баҳри момо гул бйгир,
Мағу, ки у шудаест пир.
Гул дида, хадон шавад,
Аз шодӣ ҷавон шавад.
Хой ако, ба се танга

Се гул бубар ба янга.
Бигир аз гул ду дона.
Ба модарат, дугона.
Дар ёд доред, имруз ид
Иди бузургу сайд.
Иди ҳама модарон,
Иди ҳама хоҳарон.
Аз ҳамаи тухфаҳо
Гул тухфаи бебаҳо.



РУЗНОМА

Рузномаашро
Карда тамошо,
Тира мегардид
Таъби Зулайхо.
Аз баҳои панҷ
Надорад нишон,
Аммо чу мурча
Дуҳо фаровон.
Пагоҳ аз сафар,
Меояд падар,
Албатта аз ин
Меёбад хабар.
Баҳона бисёр,
Гиряш тайёр,
Чуяд халосӣ
Аз дуи қатор.
Фикри аҷиб
Омадаш ба сар,
Бишкуфта аз шавқ
Чун лолаи тар.
Ҳар варақе ки
Ду дошт, дарронд,
Рузнома чӣ шуд?
Муқовааш монд!

САЛОМ

Саҳар бихезам зи хоб
Пештарак аз офтоб.
Аввал шуста дасту рӯ,
Шона занам ман ба му.
Сонӣ ду даст пеши бар
— Салом, — гуям ба модар.
Бигуям аз дилу чон
— Салом салом, бибиҷон.
— Бобо, салом, — бигуям,
— Додо салом, — бигуям.
Ҳар гаҳ ба мактаб оям,
Шодӣ зи дил намоям,
— Салом, — бигуям шодон
Бар ҳамаи устодон.

ШАРРАСТҲУ

Маҳбуба Нейматзодаро имруз дар муҳити адабии Ўзбекистон хеле хуб мешиносанд. Маҷмуаи шеърҳои ҳикояҳои бачагонии ӯ бо номи «Меҳрубон», «Таваллудат муборак» ва «Бонун бобо» дар байни бачагон бо самимият пазируфта шудааст. Маҳбуба Нейматзодаро танҳо шеър мегӯяд, балки ҳамчун ҳунарманди асили адабиёти бачагон афсонаву ҳикояҳо ва ҷистонҳои бешуморе низ дорад. Инак, чанд шеърҳои Маҳбуба Нейматзодаро пешкаш менамоем.

БЕХУНАР

Аз ҳама пеш аз хобаш
Нонвойдухтар меҳезад,
Дасту рӯяшро шуста,
Аввал ӯ орд мебезад.

Бо ҳаёли шеъри нав
Шоира хезад аз хоб,
Духтараки шоҳибоф,
Сӯии кор созад шитоб.

Духтараки донишҷу
Китоб хонад аз саҳар,
Зардузи моҳир ба шавқ,
Медӯзад тоқии зар.

Лек духтари беҳунар
Ҳайрон аст ба чӣ кушад,
Аз бозор сақич харад,
Сари куча фурушад.



Себҳоро
тарзе чойгузорӣ
кунед, ки зарбул-
масал ҳосил
шавад.

Но

раи

аз

беҳ

за

худ

па

ла

рон

га

го

ди

ни

ви

ДАСТИ РОСТУ КАҶ

Дар сари хон тамоми аҳли
оила тановули таом
доштанд. Модар пай бурд,
ки Бузургмеҳри хурдакак
бо дасти чап таом хурда
истодааст.

— Бузургмеҳр, таомро
бояд бо дасти рост хурд,
— таъкид намуд ӯ ба
писарчааш. Бузургмеҳр
дасташро ёзонда ин
тарафу он тарафашро
мушоҳида карда гуфт:
— Чӣ, магар дасти ман
каҷ аст?

НОС-КА-ДУ!

Падар аз писарчаи хурдсолар, ки акнун ба синфи якум қадам ниҳода буд, хоҳиш намуд, ки носашро орад. Нос дар шишачаи шампун андохта шуд буд.

— Канӣ, Ҷовид хонда бин, ки ин ҷо чӣ навишта шудааст, пурсид падар аз писарчааш, ки дар даст шишача рост меистод.

Ҷовид навиштаҷоти куттичаро бо тамоми гайрат ҳаракат кард хонад, вале хонда натавониста ба ҳар эҳтимол ҳичо карда гуфт:

— Нос-ка-ду!

ШИНМАЙМАН

Наргис, ки дар хона бо забони тоҷикӣ ҳарф мезаду дар куча бо забони узбекӣ баъзан гуфтаҳояшро касе намефаҳмид.

Боре модар муйҳояшро бофтани шуда гуфт:

— Наргис ин ҷо биё ва ба ин курсӣ биншин, ки ман кокулчаҳоятро бофам!

Наргис ҳамоно бо бозӣ овора буд ва модар боз такрор кард:

— Наргис, биё шин гуфтам...

Наргис бепарвоёна ҷавоб дод:

— Не, ман шинмайман!

ЗОДРУЗ

Ин бегоҳ орастаам,
Шинам ҷойи хостаам.
Намегуянд: «Парвона
Айбро медонӣ ё на?
Хез аз ҷоят, шин поин,
Ҷоятро доништа шин».
Ҳар қадар суруд донам,
Ман аз як сар меҳонам.
Тухфа овард бароям
Ду амма, се тағоям.
Ҳама мегуянд суҳан
Ин бегоҳ дар васфи ман.
Бибем гуянд: «Момо шав,
Бадавлат мисли мо шав».
Холем гуянд: «Хола шав,
Яксаду бистсола шав».
Гох рақсад бобо бо ман,
Гох рақсад додо бо ман.
Фархунда бод рузи ман,
Ин шоми зодрузи ман!

Aziz bolalar, gazetamiz sahifalarini bir-biridan go'zal rasmlar bilan bezab beradigan rassom - Nodira Mirzayevani yaxshi bilasiz. Ularni biz xorijdagi muxbirimiz, deb bemaolol aytamiz. Chunki Nodira opangiz nafakat mamlakatimiz, balki Rossiya-yu Belorussiya shaharlari bolalari hayoti va faoliyatidan maqolalar uyushtirib, xizmat safarida ham bo'ladilar. Mana, yaqinda Belorussiyadan qaytib keldilar.

ham faxrli o'rinlardan birini egalladi.

Muxbir safardan qaytdi

- O'zbekistondan boshqa jurnalistlar ham borgan edimi?

- Ha, «G'uncha» jurnalining Bosh muharriri Yoqut opa Rahimova, «Klass» gazetasining Bosh muharriri Alla Suxanovich ham bor edilar. Bizlarni yuqori darajali xizmat doirasiga ko'ra kutib olishdi. Tanlov yaxshi tashkillashtirilgan, rossiyalik estrada yulduzlari konsertlari ham uyushtirilgan edi. Mana, suratlardagi artistlarni taniyapsizmi? Nodira opangiz mashhur artistlar bilan tushgan suratlarini menga ko'rsatdi. Siz ham ularni taniyotgandirsiz? E'dita Pyexa, Lyudmila Gurchenko, Mixail

- Xizmatlar qanday o'tdi, Nodira opa?

- Yurgan daryo, deb bekorga aytishmaydi-da, o'ziyam.

Juda ko'p joylarda bo'l-

M.Boyerskiydan dastxat

HAMMA TINCHLIK ISTAYDI

dim. Qayerga Boyarskiy... b o r m a y , Aziz bolalar, O'zbekistonim mabodo Siz ham - Toshkentim, Rossiya va belorussiyalik bolalar «Tong yulduzi» gazeti bilan do'stlash-

moqchi bo'lsangiz, tahririyatimizga maktub yo'llang. Albatta Nodira opangiz maqsadingiz amalga oshishiga ko'maklashadi.

tasi va yana xalqim to'g'risida gapiraman. Borgan manzilibda albatta 5-10talab gazetamizni hadya qilaman. Ijodkor o'quvchilarning, do'stlashuvchi yoshlarning manzillarini so'rab olaman.

- Siz «Slavyanskiy bazar v Vitebske» degan xalqaro tanlovda ham bo'ldingiz. Shu haqda gapirib bersangiz?

- Gapirib beradigan bo'lsam, bir kun ham kamlik qiladi. Chunki dunyoning 53 mamlakatidan tashrif buyurgan 70dan ziyod tilda so'zlashuvchi Yevropa, Osiyo, Amerika, Afrika, Avstraliya, Avstriya, Singapur, Chili va braziliyalik ishtirokchilar chin ma'noda meni maftun etdi. Chunki ularning hammasi ham bizlar kabi bir osmon ostida yashab, tinch-xotirjam umr kechirsam deyishadi. O'zbekistondan Anora va Shirin degan qizaloqlar qatnashishdi. Eng quvonarlisi, bolalar va o'smirlar qo'shig'i yo'nalishida ikkinchi darajali diplom bilan, estrada yo'nalishida esa «Gran-pri» sovrini bilan taqdirlangan Anora tomoshabinlar yoqimtoyi bo'ldi. Shirin

Chunki u kishining o'zlari ham sizdek paytlaridan o'sha

tarafarga maktub yo'llab, ko'plab do'st orttirganlar. Endi esa har yili ularning aziz mehmoni bo'ladilar.

Jahongashta jurnalist shu so'zni qayta-qayta takrorlaydi: Men tanigan, ko'rgan va bilganlarning hammasi tinchlik istaydi. Farzandlarini o'qitsam, yaxshi odamlar safiga qo'shsam, - deydi. Qiziq, urush olovini yoquvchilar kimlar ekan-a? Kim u uylarni xarobaga aylantiruvchi, kulib turgan ko'zlarni yoshlarga to'ldiruvchi? Turli millat vakillari bilan suhbatga kirishar ekanman, o'sha qora niyatli, insoniyat kushandasini topib, yanchib tashlagim keladi. Ammo... Odam olasi ichida ekan-da...

Biz Nodira opangizga uzoq umr, oilaviy xotirjamlik tilar ekanmiz, yaxshilar ko'p olamda, yomonlarning niyati aslo urchimaydi, deymiz.

Muharrama va Elvira suhbatlashdi.

Lev Leshenko bilan

O'zimizning Anora

Xorij matbuotida chiqish

- Tahririyatmi? Bobruysk haqidagi taassurotlarim bilan o'rtoqlashsam maylimi? - dedi O'rta Osiyo aksenti bilinib turgan, biroq yaxshi rusiy zabonda so'zlayotgan ayol hayajon bilan.

- Albatta, ismingiz nima?

- Nodira Mirzayeva. Men hozir boraman. Tahririyat qayerda joylashganini bilaman...

Shunday qilib, biz Toshkentda nashr etiladigan respublika gazetasi «Tong yulduzi»ning rassomi bilan tanishdik. Nodira shahrimizga shaxsiy ish yuzasidan kelgan bo'lib, 10 yil avvalgi Bobruysk bilan bugungi shahrimiz o'rtasidagi tafovutni, o'zgarishlarni ko'rib hayratlandi. Undan ham ajablanarlisi, 19-martda bo'lib o'tgan Prezident saylovi edi.

- Bobruyskliklarning xotirjamlik bilan saylovga chiqishlarini ko'rib, o'zbekistonliklarning hech shubhasiz Islom Karimovni saylashga chiqqanlari yodimga tushdi. Xalqingiz ham Prezident

saylovini bayramona o'tkazishganiga guvoh bo'ldim. Sizlarda

Prezidentni «Batka», deyishadi, bizda ham muqaddas ma'no anglatadigan «ota» e'zozlashadi. Ota - oilaning boshida. Agar katta va ko'pmillatli oilani zukko va g'amxo'r ota boshqarsa, shu oilada tinchlik va farovonlik bo'ladi.

Buni mamlakatimizda sodir etilgan buzg'unchilik harakatida bildik. O'shanda Prezidentimiz oynayi jahonda chiqib, xalqni tinchlanishga hamda vazminlikka chaqirdi. Uning qat'iyatli ko'inishi bizni ham ruhlantirib yubordi. Ekstremizmga adashib kirganlar o'z xatolarini anglab yetdi. Xalqidan, Prezidentidan uzr so'rganlar avf etildi...

Men Belorussiyani juda yaxshi ko'raman. O'zimizning va xalqimning nomidan Aleksandr Lukashenkoni g'alabasi bilan qutlayman. Diyoringizning yana-da gullab-yashnashiga, tinchlik barqaror bo'lishiga tilakdoshman.

(«Bobruyskoye jütse»dan tarjima qilindi).

TONG yulduzi

O'zbekiston Respublikasi bolalari va o'smirlarining gazetasi

BOSH MUHARRIR:

Umida

ABDUAZIMOVA

TAHRIR HAY'ATI:

Turobjon JO'RAYEV,
Dilbar OLIMJONOVA,
Botir UBAYDULLAYEV,
Jabbor RAZZOQOV,
Dilmurod RAHMATILLAYEV,
Dilshoda DADAJONOVA,
Feruza JALILOVA
bosh muharrir o'rinbosari)
Sobirjon SHARIPOV,
Nurxon NAFASOV,
Ergashvoy SARIQOV.

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida 022-raqam bilan 2003-yil 11-dekabrda ro'yxatdan o'tgan.

Noshir

«O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyi.

Gazeta

«O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyi

kompyuter bo'limida terib sahifalandi va chop etildi.

Gazeta haftaning dushanba kuni chiqadi.

Hajmi A-3,
2 bosma taboq.

Adadi - 48849

Buyurtma N: J 2412

Dizayner va sahifalovchi:

Fazliddin

SHAYADGAROV.

Navbatchi:

Ozoda

TURSUNBOYEVA.

Rassom:

Nodira MIRZAYEVA.

Manzilimiz:

700129,

Toshkent shahri,

Navoiy ko'chasi, 30-uy.

Obuna indeksi: 198.

e-mail:

tong_yulduzi@rambler.ru

Tel: 144-23-81

144-63-08

Tel./ faks:

(99871) 144-24-45

SAYLOVGA BAYRAMGA BORGANDEK CHIQDIK